

## Na`matak o`simligining xususiyatlari

Inomjonova Muhtasar Muhiddin qizi  
Nabiyeva Dilzoda Abduvohid qizi  
Andijon Davlat Pedagogika instituti  
Aniq va Tabiiy Fanlar Fakulteti  
Biologiya yo`nalishi 1-bosqich 102-guruh  
talabalari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada na`matak o`simligining o`ziga xos xususiyatlari haqida ma`lumot keltirilgan. Na`matak ra`nodoshlar oilasiga mansub ko`p yillik o`simlik hisoblanadi.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация об особых характеристиках растения наматак. Наматак – многолетнее растение, принадлежащее к семейству розоцветных.

**Abstract:** This article provides information about the specific characteristics of the namtak plant. Namtak is a perennial plant belonging to the family of Ranunculaceae.

**Kalit so`zlar:** Meva, immunitet, vitamin, farmatsevtika, limon kislota, parfyumeriya, changchi, urug`chi, ra`no.

Na`matak ( Rosa ) – ra`nodoshlar oilasiga mansub butalar turkumi. Bo`yi 3 metr. Bargi toq, patsimon murakkab, poyada ketma-ket joylashadi. Guli xushbo`y, rangi har xil, yakka yoki 2-3 tadan o`rnashgan. Mevasi shirali, shakli va rangi har xil, gul o`nidagi soxta meva ichida tukli, bir urug`li yong`oqchalar joylashgan. Na`matak turlari bir-biridan mevasining shakli, katta-kichikligi, rangi, novda po`stlog`ining rangi hamda novdadagi tikanlarning oz-ko`pligi va joylanishiga qarab farqlanadi. Na`matak o`rmonlarda ariq yoqalarida, butalar orasida, tog` yonbag`irlarida o`sadi. Guli chiroyli turlari bog`larida, xiyobonlarda va ko`chalarida o`stiriladi.[1]

Itburun na`matak ( R. canina ) mevasida 4-6%, ba`zan 18% cha C, B2, K, B oilasi vitaminlari, 18mg% cha karotin, 18% cha qand, 2% cha limon kislota, oshlovchi va boshqa moddalar bo`lib, tibbiyotda avitaminozning oldini olish va davolashda qo`llaniladi. Na`matakning manzarali turlari – atirgullardan olinadigan xushbo`y efir moyi ( atirgul moyi ), asosan, parfyumeriyada, undan tayyorlanadigan atirgul suvi ( Aqua Rosae ) farmatsevtikada dorilarning hidi va mazasini yaxshilash uchun ishlatiladi.[ 1 ]

Na`matak iyun-iyul oyilarida gullaydi . Gullarida juda ko`p changchi va urug`chilari bor. Uning soxta mevasi to`q qizil, etdor, uzunchoq tuxumsimon, uzunligi 2-3sm, ichida juda ko`p qattiq urug`lari bor. Mevasi tarkibida inson salomatligi uchun zarur moddalardan darmondori, limon kislota, oshlovchi va boshqa moddalar bo`ladi. [2; 113-bet ]

Na`matak odamning quvvati kamayganida, erta bahorda organizmda vitaminlar yetishmaganda qaynatmasi tavsiya etiladi. Mevasi odamning immunitetini oshiradi. Qaynatmaga nisbatan termosda damlangan na`matakda vitaminlar ko`proq saqlanib qoladi. Tarkibidagi C vitamini qonni suyultiradi, arterial bosimni tushiradi, organizmdan mikroblarni chiqarib yuborishga yordam beradi. [ 3; 55-bet ]

Mevasi tayyorlanadigan xolosas preparati jigar kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Xalq tabobatida damlama va qaynatmalaridan me`da-ichak kasalliklari, bachadondan qon oqishini to`xtatuvchi, isitma tushuruvchi, o`t va siydik haydovchi sifatida ishlatiladi. Bu damlama bilan milk shamollashi va qon oqishida chayiladi.[ 4 ]

O`zbekitonda bu turkumga mansub 13 tur o`simlik o`sadi. Na`matak madaniy atirgullarning yovvoyi turi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O`zMe.Birinchi jild. Toshkent 2000 –yil
2. 6-sinf biologiya darslik . [ O`.Pratov, A.S.To`xtayev, F.O`.Azimova, I.Z.Saparboyev, M.T.Umaraliyeva. ] Toshkent – “O`zbekiston” – 2017
3. 5-sinf biologiya darslik [ O`.Pratov, A.To`xtayev, F.Azimova, Z.Tillayeva.] Toshkent “O`zbekiston” 2020
- 4.Avitsenna.uz.